



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Investitsiyalar Samaradorligiga Ta'sir Qiluvchi Omillar

Nizamov Xusniddin Fazlidinovich

“Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston” Temir yo‘llari kompaniyasi Infratuzilma va foydalanish boshqarmasi, Khnizamov@gmail.com

Hozirgi globallashuv va raqobat sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq investitsiya resurslarining hajmi emas, balki ularning samaradorligi iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va innovatsion rivojlanishni ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois investitsiyalar samaradorligini belgilovchi omillarni aniqlash va tahlil qilish iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Investitsiya samaradorligi ko‘plab ichki va tashqi omillar ta‘sirida shakllanadi. Xususan, makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional muhit sifati, moliyaviy resurslarning mavjudligi, texnologik rivojlanish darajasi, boshqaruv tizimining samaradorligi hamda investitsion risklar darajasi ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unligi investitsiya loyihalarining iqtisodiy natijadorligini belgilab beradi. Bu esa o‘z navbatida investitsiyalar samaradorligiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillarni tizimli ravishda yoritish, ularning iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda investitsion qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash zaruratini keltirib chiqaradi.

Investitsiyalar samaradorligining makroiqtisodiy, institutsional va boshqaruv omillari bilan chambarchas bog‘liqligi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, ushbu holat investitsiya jarayonining murakkab va ko‘p qatlamli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Aynan shu nazariy yondashuv doirasida ayrim xorijiy olimlar investitsiya samaradorligini axborot sifati va institutsional mexanizmlar bilan bevosita bog‘liq holda tahlil qiladilar. Xususan, bir guruh olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda investitsiya samaradorligi moliyaviy hisobot va buxgalteriya axborotining aniqligi hamda o‘z vaqtida taqdim etilishi bilan izohlanadi (Wisnantiasri va boshq., 2025). Mualliflar fikriga ko‘ra, axborot shaffofligining oshishi axborot asimmetriyasini kamaytirib, ortiqcha (overinvestment) yoki yetarli bo‘lmagan (underinvestment) investitsiya holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Bu yondashuv investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida shaffoflik va institutsional muhit sifatining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini nazariy hamda empirik jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, korporativ boshqaruv va korporativ ijtimoiy mas‘uliyat (KSK/CSR) omillariga berilgan e‘tibor investitsiya samaradorligiga nazorat va intizom mexanizmlari orqali ta‘sir etishini ko‘rsatadi. Mustaqil direktorlar kengashi, kuchli ichki nazorat va ijtimoiy mas‘uliyatli strategiyalar menejerlarning subyektiv qarorlarini cheklab, investitsiyalarni uzoq muddatli qiymat yaratishga yo‘naltiradi. Davlat aralashuvi va siyosatiga oid xulosalar esa investitsiya muhitining tashqi sharoitlarga qanchalik bog‘liqligini ochib beradi: soliq imtiyozlari, subsidiyalar va tartibga

solish darajasi investitsiya hajmi va yo‘nalishini bevosita belgilab beradi. Mulkiy tuzilma omili, ayniqsa institutsional investorlar ulushining yuqoriligi, monitoringni kuchaytirish orqali investitsiya samaradorligini oshiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin etiladi.

Boshqa bir guruh olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari esa mazkur umumiy nazariy qarashlarga nisbatan muayyan darajada farqlanuvchi empirik xulosalarni taqdim etadi. Ularning ishida moliyaviy hisobot sifati (KLK) va qarz muddati investitsiya samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan (Pratomo va sheriklari, 2024). Bu holat investitsiya samaradorligining faqat axborot sifati yoki moliyaviy tuzilma bilan emas, balki tarmoq xususiyatlari, bozor rivojlanish darajasi va institutsional muhit bilan ham chambarchas bog‘liqligini anglatadi.

Ayni paytda, rentabellik va kompaniya hajmining ijobiy ta’siri haqidagi xulosalar iqtisodiy mantiqqa mos keladi: yirik va foydador firmalar moliyaviy resurslarga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo‘lib, investitsiya risklarini samaraliroq boshqaradi hamda uzoq muddatli strategik loyihalarni amalga oshirish salohiyatiga ega bo‘ladi. Bu esa investitsiya samaradorligini oshirishda ichki moliyaviy barqarorlik va miqyos effekti muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Mazkur olimlar fikrlarini qiyosiy tahlil qilish investitsiyalar samaradorligi yagona universal omillar bilan emas, balki moliyaviy, institutsional va tarkibiy sharoitlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanishini tasdiqlaydi. Shu jihatdan, investitsiya samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosat va boshqaruv qarorlari tarmoq, bozor va korxonada darajasidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda kompleks yondashuv asosida ishlab chiqilishi zarur deb xisoblaymiz.

Birinchidan, tarmoq darajasidagi xususiyatlar investitsiya samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Bular jumlasiga kapital sig‘imi va texnologik murakkablik darajasi, ishlab chiqarish siklining davomiyligi, innovatsion faollik, raqobat intensivligi hamda tarmoqdagi risklar darajasi kiradi. Masalan, yuqori kapital talab qiluvchi va uzoq muddatli investitsiya sikliga ega tarmoqlarda investitsiya qarorlarining samaradorligi ko‘proq uzoq muddatli strategik rejalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchidan, bozor darajasidagi xususiyatlar investitsiya muhitining umumiy sharoitlarini belgilaydi. Ularga makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya va foiz stavkalari darajasi, moliya bozorlarining rivojlanganligi, kapitalga kirish imkoniyatlari, huquqiy va institutsional muhit sifati, shuningdek, davlatning investitsiya va soliq siyosati kiradi. Barqaror va prognoz qilinadigan bozor muhitida investitsiya risklari kamayib, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi ortadi.

Uchinchidan, korxonada darajasidagi xususiyatlar investitsiya samaradorligining bevosita ichki omillarini ifodalaydi. Bular qatoriga korxonaning moliyaviy barqarorligi, rentabellik darajasi, aktivlar tuzilmasi, boshqaruv sifati, korporativ boshqaruv mexanizmlari, axborot shaffofligi, innovatsion salohiyati va strategik rejalashtirish darajasi kiradi. Ayniqsa, ichki nazorat tizimi va menejment qarorlarining sifatli bo‘lishi investitsiya resurslarining maqsadli va samarali yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosat va boshqaruv qarorlari faqat alohida omillarga tayangan holda emas, balki tarmoq, bozor va korxonada darajasida shakllanadigan omillarning o‘zaro uyg‘unligi va tizimli ta’sirini inobatga olgan holda ishlab chiqilgandagina yuqori iqtisodiy natijalarni ta’minlay oladi. Bunday yondashuv investitsiya jarayonlarining murakkab va ko‘p qirrali tabiatini to‘liq aks ettirib, resurslarning maqsadli taqsimlanishi va investitsiya qarorlarining asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kompleks yondashuv investitsiya risklarini kamaytirish, axborot asimmetriyasini cheklash hamda institutsional va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi. Natijada investitsiyalar nafaqat qisqa muddatli moliyaviy natijalarga, balki uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘shish, ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi va raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois investitsiya samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiy siyosat va korporativ boshqaruv

tizimida ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida koʻrib chiqilishi maqsadga muvofiqdir..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hu J., Kong M., Wang K. (2022). The Influential Factors and Economic Consequences of Corporate Investment Efficiency: A Literature Review. Proceedings of the 2022 7th International Conference on Financial Innovation and Economic Development (ICFIED 2022).
2. Pratomo D., Prajanto A., Durya N. (2024). Faktor-Faktor Yang Mempengaruhi Efisiensi Investasi Pada Perusahaan Sektor Transportasi Periode 2018-2022. Jurnal Maneksi.
3. Risdiawan H., Aryani A., Setiawan E., Sudaryono A. (2024). Fostering Investment Efficiency in Indonesian Firms: Empirical Evidence and Recommendations for Future Research. Journal of Accounting Research, Organization and Economics.
4. Wisnantiasri S., Widiastuti Y., D. (2025). Key Determinants of Corporate Investment Efficiency. Indonesian Journal of Business Analytics.